

Adabiyot fanidan “Mustaqil o‘qilgan asarlar yuzasidan suhbat. G‘afur G‘ulomning Shum bola qissasi tahlili” mavzusida ochiq dars o‘tkazildi

Joriy yilning 13-fevral sanasida 206-guruhda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Kuvatova Nafisa Zayerjonovna tomonidan **adabiyot fanidan “Mustaqil o‘qilgan asarlar yuzasidan suhbat. G‘afur G‘ulomning Shum bola qissasi tahlili” mavzusida ochiq dars o‘tkazildi.**

Dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish va qissani chuqurroq tahlil qilish maqsadida **“Aqliy hujum”, “Karta”, “Mushoira”, “Shapshap”, “Akvarium”, “Cho‘ntak”, “Ruchka stol ustida” va “Raqamlar so‘zlaganda”** kabi innovatsion metod va interfaol o‘yinlardan foydalanildi. Ayniqsa, “Shum bola” qissasidan **“Sariboyning mot qilinishi” sahnasining** ijro etilishi darsni yanada jozibador bo‘lishiga xizmat qildi.

Dars yakunida eng faol ishtirokchilar aniqlanib, g‘olib o‘quvchilariga esdalik sovg‘alari topshirildi.









SamDCHTI akademik litseyi axborot xizmati